

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

Mutalibjonova Ruxshona Ozodbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

E-mail:mutalibjonovaruxshona@.com

Tel:+998976664050

Ilmiy maslahatchisi

ADCHTI Ingliz tili nazariyasi va

amaliyoti kafedrasи o'qituvchisi

No'monova Zebiniso Usmonjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlarning nazariyasi va ularning amaliyotga tatbiqi tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, raqamlı vositalar va o'yin asosidagi o'qitish usullari, til o'rganish jarayonini qanday samarali qilishiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur yondashuvlarning o'quvchilarning motivatsiyasi va til kompetensiyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy tillarni o'qitish, innovatsion yondashuvlar, raqamlı vositalar, o'yin asosidagi o'qitish, til kompetensiyasi, motivatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические аспекты инновационных подходов в преподавании иностранных языков и их практическое применение. Особое внимание уделяется современным технологиям, таким как цифровые инструменты и игровые методы обучения, и их влиянию на эффективность процесса изучения языка. Также рассматривается воздействие этих подходов на мотивацию учащихся и их языковую компетенцию.

Ключевые слова: преподавание иностранных языков, инновационные подходы, цифровые инструменты, игровое обучение, языковая компетенция, мотивация

Annotation: This article analyzes the theoretical aspects of innovative approaches in foreign language teaching and their practical application. It focuses on modern technologies, such as digital tools and game-based learning methods, and their impact on the effectiveness of language learning processes. Additionally, the influence of these approaches on students' motivation and language competence is examined.

Keywords: foreign language teaching, innovative approaches, digital tools, game-based learning, language competence, motivation.

XXI asrda xorijiy tillarni o'qitish sohasi innovatsion texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Zamonaviy pedagogik usullar, raqamlı vositalar va o'yin asosidagi o'qitish

texnikalari til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Hozirgi kunda an’anaviy grammatika-qoidabozlik asosidagi usullar bilan bir qatorda, interfaol va texnologiyaga asoslangan metodlar ham keng qo‘llanilmoqda. Globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish dolzarb masalaga aylandi. An’anaviy ta’lim usullari o‘rnini innovatsion yondashuvlar egallab, o‘quv jarayonini samarali va qiziqarli qilishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlar, texnologiyalar va ularning amaliyatga tatbiqi haqida so‘z yuritiladi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalar, metodlar va strategiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. Masalan, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish va masofaviy ta’lim platformalari orqali o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi ortadi. Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlarning nazariy asoslari quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi. Konstruktivistik(amal qilsa bo’ladigan) yondashuv o‘quvchilarning bilimni passiv ravishda qabul qilishidan ko‘ra, uni o‘z tajribasi asosida faol ravishda shakllantirishini ta’kidlaydi. Bu nazariya xorijiy tillarni o‘qitishda quyidagicha qo‘llaniladi: O‘quvchilar real hayotga oid vaziyatlar asosida mustaqil fikrlash va til ko‘nikmalarini shakllantirishga undalanadi. Mashg‘ulotlarda rostdan ham hayotda duch keladigan topshiriqlardan foydalaniladi (masalan, savdo do‘konida muloqot, mehmonxonada joy bron qilish va h.k.). O‘qituvchi yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi, lekin o‘quvchi o‘zi bilim hosil qiladi. Rivojlangan davlatlarda o‘quvchilarga chet tilida interfaol muammolarni hal qilish uchun loyihamar beriladi. Masalan, ingliz tilini o‘rganayotgan talabalarga "Toshkentga sayohat rejalshtirish" loyihasi topshirilishi mumkin. Ular viza olish, mehmonxona bron qilish, mashhur joylar haqida ma’lumot to‘plash orqali tilni amaliy o‘rganadilar.

Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasasi" nazariyasini ham ko‘p yillardan buyon innovatsion yondashuvlarni yaratishga asos bo‘lib kelmoqda. Lev Vygotskiy ta’limda shaxsning o‘z bilim darajasi va qo‘llab-quvvatlovchi resurslar (o‘qituvchi, ilg‘or o‘quvchilar, texnologiyalar) orqali yetishi mumkin bo‘lgan daraja o‘rtasidagi farqni tushuntiradi. Bunda o‘quvchilar murakkab vazifalarni bajarishda yordamga ehtiyoj sezadi, lekin ularning mustaqil o‘rganish qobiliyati ham rivojlanishi kerak. Dars jarayonida dastlabki bosqichda murabbiy yoki ilg‘or o‘quvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘ladi, keyinchalik o‘quvchilar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajara olishi lozim. Chet tillarini o‘qitishda ham bu kabi usullardan foydalanish mumkin. Masalan Xorijiy tillarni o‘qitishda dastlab o‘qituvchi dialoglarni boshqaradi, so‘ngra o‘quvchilar juftlikda yoki kichik guruhlarda mustaqil suhbat

qurishga o‘tadilar. Kognitiv yondashuv uslubi ham hozirgi zamonda eng keng tarqalgan innovatsion metod sifatida ko‘rilmoxda. Kognitiv psixologiya asosida innovatsion yondashuvlar o‘quvchilar bilimni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va eslab qolishiga asoslanadi.Ya’ni o‘quvchilar yangi so‘zlarni kontekstda tushunish orqali yaxshiroq eslab qoladilar.Takrorlash, assotsiativ metodlar va vizual tasvirlar (rasmlar, videolar) yordamida ma’lumotni tezroq o‘zlashtirish mumkin.Bu uslub ayniqsa, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun juda foydalidir. Til o‘rgatishda mind-map (aqliy xaritalar) va flashcards (kartochkalar) ishlatish orqali o‘quvchilar so‘z boyligini rivojlantirishadi.

Rivojlanayotgan dunyoda ko’plab mamlakatlarda asosiy e’tibor ta’limga qaratilgan bo’lib hozirgi kunda bilim orqali bellashilmoqda.Shu sababli yangi yondashuvlar va uslublar ishlab chiqilib yoshlarni bilim olishga bo’lgan qiziqishini orttirish asosiy vazifa sfatida qaralmoqda. Interfaol (informatsiyani, ahborotlarni komputer tarmog’i orqali qabul qilish va uzatishga asoslangan) yondashuv kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, xorijiy til o‘rganishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu uslubda o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilib, tildan faol foydalanadilar. Ya’ni guruh bo’lib yoki juft bo’lib ishlashadi. Rol o‘ynash (role-play) orqali talabalar muayyan vaziyatda o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘radilar. Bu uslub juda keng tarqalgan bo’lib til ko’nikmalarini shakllantirishda va rivojlantirishda samarali natijalarni keltirib chiqarmoqda. Yana bu uslub orqali o‘quvchilar va talabalar speaking mahoratini oshirib, o‘zaro muloqot qilish ko’nikmalarini rivojlantiradilar. Debatlar va muhokamalar orqali dunyoqarashni oshirishlari mumkin. O‘quvchilar til ko’nikmalarini rivojlantirish bilan birga mantiqiy fikrlashni ham shakllantiradilar. Mashg’ulotda talabalar “Yangi restoran ochish” loyihasini ishlab chiqib, turli rollarni (menejer, oshpaz, mijoz) bajarishadi va ingliz tilida muhokama qilishadi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Sun’iy intellekt yordamida til o‘rganish – Chatbotlar, AI dasturlari orqali interaktiv mashg’ulotlar o‘tkazish ham ommalashmoqda.

Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘sish) til mashg’ulotlarini qiziqarli va samarali o‘tkazishda muhim manbaalar sifatida maktab darsliklariga kiritildi. Duolingo, Kahoot kabi platformalar orqali til o‘rganishni qiziqarli qilish va dars mashg’ulotlarini zavqli tashkil etishda juda foydali xizmat qilmoqda. Innovatsion yondashuvlar xorijiy tilni o‘qitishda an’anaviy usullarga qaraganda ko‘proq samaradorlikni ta’minlaydi. Zamonaviy ta’lim metodlari o‘quvchilarning til o‘rganishga bo’lgan motivatsiyasini oshirib, ularning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, texnologiyalarning integratsiyasi va interfaol yondashuvlar o‘quvchilarning bilimni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Kognitiv yondashuv xorijiy tillarni o‘rganishda miyaning axborotni qanday

qayta ishlashini hisobga olgan holda qo'llaniladi. Axborotni qayta ishslash va eslab qolish texnikalaridan foydalanish ham keng tarqalmoqda. Xorijiy til o'rganishda yangi so'zlar va grammatikani eslab qolish muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Quyidagi texnikalar kognitiv yondashuv asosida qo'llaniladi. Assotsiativ metod – So'zlar va iboralarni vizual yoki hissiy tasavvurlar bilan bog'lash. Masalan, "apple" so'zini olma rasmi bilan bog'lash kerak. Mnemonika uslubi keng tarqalmoqda va uning ham juda ko'p turlari rivojlanib bormoqda. Kontekstual o'rganish so'zlarni ajratib o'rganish emas, balki jumlalar va matnlar ichida tushunishdir. Bunda kitob matnini turli rangli plamasterlar va rangli ruchkalar yordamida belgilab, chizib chiqiladi. Takrorlash intervali Feynman metodi yoki Spaced Repetition System (SRS) yordamida bilimni uzoq muddat eslab qolish mumkin. Mustaqil fikrlash va bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun kognitiv xaritalar, metakognitiv strategiyalar samarali ekanligi kuzatilmoqda. Kognitiv(aqliy) xaritalar (Mind Maps) – O'quvchilar yangi tushunchalarni vizual ravishda bog'lash orqali yaxshiroq tushunadilar. Bunda turli xildagi kartochkalar, rasmlar va boshqa manbaalar qo'l keladi. Metakognitiv strategiyalar – O'quvchilarga o'z bilim olish jarayonlarini tahlil qilish va yaxshilashga imkon beradi. Masalan, til o'rganishda qanday strategiyalar samarali ekanligini kuzatish orqali har kim o'ziga mos bo'lgan bilim olish strategiyasini tanlab olishi va samarali natijalarga erishishi mumkin. O'quv mashg'ulotlari davomida juda ko'p ma'lumot berish o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini pasaytiradi. Chunki uzoq vaqt davomida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish mushkul vazifadir. Axborot kichik bo'laklarga ajratilib berilishi kerak. Masalan, grammatikani bosqichma-bosqich o'rgatish, bir mavzu doirasida darsni tashkillashtirish, qisqa tanaffuslar olib borish kabi. Dars davomida o'quvchilarga faqat muhim ma'lumotlarni berish orqali ularning e'tiborini kerakli joyga qaratish mumkin. Oldingi yillarga qaraganda hozirgi kunda til o'rgatishning bir necha dars andozalari ishlab chiqilmoqda. Bunda kognitiv dars mashg'ulotlarini olib boorish keng tarqalmoqda. Bu uslubda dars quyidagicha yondashuvda olib boriladi.

1. Yangi mavzu taqdimoti – O'quvchilar mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar bilan tanishadi.

2. Faol qo'llash – Mashqlar, suhbatlar va interaktiv metodlar yordamida bilim mustahkamlanadi.

3. Tahlil va refleksiya – O'quvchilar o'z o'rganish jarayonlarini baholaydilar va qiyinchiliklarni aniqlaydilar.

Kognitiv yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari
Afzalliklari:

✓ Bilimning uzoq muddatli eslab qolinishi – O'quvchilar ma'lumotni shunchaki yodlab emas, balki tushunib o'rganadilar.

✓ Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – Mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi.

✓ O'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi – Tilni o'rganish qiziqarli va samarali bo'ladi.

✓ Turli yoshdagi o'quvchilarga moslashuvchan – Har xil bilim darajasidagi talabalar uchun mos.

Kamchiliklari:

✗ Ko'proq vaqt talab qiladi – O'quvchilarga yangi bilimlarni chuqur tushunish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi.

✗ Murakkab mavzularni o'rganishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin – Qiyin grammatik qoidalarni tushuntirish qiyin bo'lishi mumkin.

✗ Ko'p resurs talab qiladi – Vizual materiallar, texnologik vositalar va interaktiv darsliklar zarur.

Kognitiv yondashuv xorijiy tillarni samarali o'rganish va o'qitishda eng muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarning ongi qanday ishlashini tushunishga asoslangan bo'lib, axborotni qayta ishlash, eslab qolish va mustaqil o'rganishni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvdan foydalangan holda, o'qituvchilar dars jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv tashkil etishlari mumkin.

Rivojlangan davlatlar hozirgi kunda ta'lim sohasiga ancha ko'p o'zgartirishlar va yangi uslublar bilan yondashishmoqda. Masalan, STEM o'quv dasturi yoki FC ya'ni (Filliped classroom) kabi dasturlar asosida o'qitish tizimini joriy qilishmoqda. Xorijiy tillarni intensiv tarzda samarali o'rganish va o'rgatish uchun FC yondashuvi asosidagi dastur judayam foydali ekanligi isbotlanmoqda. Flipped Classroom – bu an'anaviy ta'lim tizimiga teskari yondashuv bo'lib, unda o'quvchilar nazariy materiallarni mustaqil o'rganadi, dars vaqtida esa amaliy mashqlar, muhokamalar va muammolarni hal qilishga e'tibor qaratiladi. Zero, amaliy mashqlar va muhokamalar o'quvchini bilimini qiziqarli tarzda mustahkamlashga, xatolarini amaliy mashqlar yordamida to'g'irlashga va yana tengdoshlari orasida o'zini tutishga, fikrlarini erkin ifoda eta olish qobiliyatini rivojlantirish uchun foydali hisoblanadi. Ushbu modelda o'qituvchi asosiy bilimlarni yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlovchi murabbiy sifatida harakat qiladi. Filliped Classroom dasturi quyidagicha bosqichlarda amalga oshiriladi.

1.Oldindan tayyorgarlik: O'qituvchi mavzu bo'yicha o'quv materiallarini (video darslar, maqolalar, slaydlar) tayyorlaydi yoki mavjud resurslardan foydalanadi.

2.O'quvchilar mustaqil o'rganishi: O'quvchilar uyda video darslarni ko'radi, maqolalarni o'qiydi yoki prezentatsiyalar bilan tanishadi.

3. Dars jarayoni: Dars vaqtida nazariyani qayta tushuntirish emas, balki amaliy mashqlar, savol-javob, muhokama va guruhli ishlarga e'tibor qaratiladi.

4. Nazorat va baholash: O‘qituvchi o‘quvchilarning tushunishini tekshirib, ularning muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Lekin bir qatorda tanganing ikkinchi tarafi bo’lganidek, bu dasturlarning ham kamchiliklari va afzalliklari bor.

Flipped Classroomning afzalliklari

✓ Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim: O‘quvchilar o‘zlari uchun qulay tezlikda yangi mavzuni o‘rganishlari mumkin.

✓ Dars vaqtining samarali ishlatalishi: Nazariyani tushuntirishga vaqt sarflanmaydi, balki amaliy mashqlar orqali bilim mustahkamlanadi.

✓ Individual yondashuv: Har bir o‘quvchi o‘zining ehtiyojiga qarab o‘rganish jarayonini boshqarishi mumkin.

✓ Faol ishtirok: O‘quvchilar dars davomida muhokama, loyiha ishlari va jamoaviy mashqlar orqali bilimlarini mustahkamlashadi.

✓ Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlik: Video darslar, onlayn platformalar va interaktiv materiallardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Flipped Classroomning qiyinchiliklari

△ Texnologik infratuzilma muammozi: Hamisha ham barcha o‘quvchilarda internet va texnik vositalar bo‘lavermaydi.

△ O‘quvchilarning mustaqil ishslash mas’uliyati: Ayrim o‘quvchilar uyga berilgan materialarni o‘z vaqtida o‘rganmasligi mumkin.

△ O‘qituvchining ortiqcha yuklamasi: Darslarni oldindan rejalashtirish, video darslarni yaratish va monitoring qilish ko‘proq vaqt talab qiladi.

Flipped Classroomdan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar

✓ Kichik qadamlar bilan boshlash: Butun dars tizimini o‘zgartirish o‘rniga, dastlab ba’zi darslarda sinov tariqasida qo‘llab ko‘rish.

✓ Sifatli material tayyorlash: Video darslar qisqa va tushunarli bo‘lishi kerak.

✓ O‘quvchilarni motivatsiya qilish: Mustaqil o‘rganishning afzalliklarini tushuntirish va rag‘batlantirish.

✓ Interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanish: Dars jarayonida rolli o‘yinlar, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlarga urg‘u berish.

Flipped Classroom usuli zamonaviy ta’lim jarayonida samarador yondashuvlardan biri hisoblanadi. U o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkoniyatini berib, dars vaqtida amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan teskari sind modeli o‘quvchilar faolligini oshirib, ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunbekova, N. I. (2024). Xorijiy til ta'limida innovatsiyalar. *Journal of New Century Innovations*, 53(1), 133–135. <https://newjournal.org/new/article/view/13940>
2. Madaminova, N. (2022). Xorijiy tillarni o'qitishda interaktiv metod usullari (Ingliz tili misolida). *Ilmiy Tadqiqot va Innovatsiya*, 1(2), 175–179. <https://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/64>
3. Toshpulatova, F. (2024). Xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion yondashuvlar. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(7), 235–236. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/35578>
4. Ismatullayeva, I. I. (2022). Xorijiy tillarni o'qitish sohasida zamonaviy yondashuv: tuzilishi, maqsadi va vazifalari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(5), 307–310. <https://oriens.uz/uz/jurnal/article/xorijiy-tillarni-oqitish-sohasida-zamonaviy-yondashuv-tuzilishi-maqsadi-va-vazifalari/>
5. Saidjanova, S. (2024). Xorijiy tillarni o'qitishning samarali usullari. *Involta Scientific Journal*, 3(1). <https://www.involta.uz/index.php/iv/article/view/659>
6. Mexmonaliyeva, G. J. (2024). Kasbiy ta'limda xorijiy tillarni innovatsion yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish. *Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi*, 2(10), 81–83. <https://zenodo.org/record/13945327>
7. Davronova, F. P., Nasirova, D. B., & Babahanova, K. P. (2022). Xorijiy tillarni tezkor o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim metodlarning ahamiyati. *Fan, Ta'lim va Amaliyat Integratsiyasi*. <https://journal.bilik.uz/isepsmj/article/view/444>
8. Abduraxmonova, M. X. Q., & Umurzakova, A. U. (2022). Chet tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar va jahon tajribasi. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*. <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/>